

PEDAGOGLARNING TEXNOLOGIK METAKOMPETENTLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nurmatova Maftuna Ashurali qizi

Farg'ona davlat universiteti O'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17375540>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida pedagogik ta'limni samarali loyihalashtirish, yangicha yondashuvlarni pedagogika yo'nalishi talabalarining metakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirish, shu asosda raqobatbardosh va zamon talabalariga javob beradigan, pedagogik faoliyat ishini to'g'ri va samarali amalga oshira oldagigan xodimlarni tayyorashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion, ta'lim, oliy ta'lim, kasb-hunar, onlayn kurs, seminar, trening, integratsiya, konsepsiya.

Аннотация: В данная статья направлена на эффективное проектирование педагогического образования в ведущих мировых научно-исследовательских институтах и международных центрах, направление новых подходов на развитие метакомпетентности студентов педагогического направления, подготовку на этой основе конкурентоспособных и отвечающих современным требованиям кадров, способных правильно и эффективно осуществлять педагогическую деятельность.

Ключевые слова: инновационный, образование, высшее образование, профессиональный, онлайн-курс, семинар, тренинг, интеграция, концепция.

Abstract: This article is aimed at effectively designing pedagogical education in leading world research institutes and international centers, directing new approaches to the development of metacompetence of students in the pedagogical field, and on this basis, training competitive and modern personnel capable of carrying out pedagogical activities correctly and effectively.

Key words: innovative, education, higher education, professional, online course, seminar, training, integration, concept.

KIRISH

Innovatsion va ijodiy yondashuvlar bo'lajak pedagogning, kasbiy faoliyatini olib borishida yangi ped-texnologik usullarni qo'llaydi, yangi metodlarni joriy etadi va o'quvchilarni ijodiy fikrlashlariga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida pedagogning o'z kasbiy faoliyatini modernizatsiya qilishga, o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashishga harakat qiladi. Bo'lajak pedagogning o'z tashabbuslarini amalga oshirishga tayyorligi va o'zini kasbiy o'sish va rivojlanish uchun mas'uliyatini his qilishi orqali, pedagogning doimiy ravishda o'z ko'nikmalarini kengaytirishga va ta'lim jarayonini takomillashtirishga bo'lgan intilishlarini ta'minlaydi. Metakompetentlikni rivojlantirishga nisbatan asosiy yo'nalishlarini tasniflashda quydagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Yangi texnologiyalarni o'rganish, soha yangiliklari bilan tanishish, qo'shimcha kurslar yoki malaka oshirishda, ta'limning turli shakllari, masalan, oliy ta'lim, kasb-hunarni o'rgatish, onlayn kurslar, seminarlar va treninglar – bularning barchasi professional faoliyatga tayyorgarlik va uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan professional tarmoq va mentorlarda, ta'lim nafaqat nazariy bilimlar, balki professional tarmoq yaratish muhim

hisoblanadi. Doimiy o'qish, tajribali ustozlardan maslahatlar olish va ular bilan imkon qadar muloqot va aloqada bo'lishi professional o'sishga katta yordam beradi.

Mamlakatimizda oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiasida ham "o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish"¹ ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Metakompetentlikni rivojlantirish jarayonida ta'lim tizimining o'zgarishi va yangilanishi muhim rol o'ynaydi. Pedagoglarga zamonaviy o'qitish metodlarini o'rgatish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion usullarni o'rganish va o'z faoliyatida sinovdan o'tkazish muhim va zaruratga aylanadi. Pedagogik tajriba va hamkorlik jarayoni orqali pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, metodik yondashuvlar bo'yicha hamkorlik qilishlari, tajriba va bilimlarni bir-birlariga uzatishlari muhim hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta'limning asosiy maqsadi – kasbiy daraja va mutaxassisligiga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalari kasbiy sohalari davlat ta'lim standarti malaka talablarida asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablar shakllantirilgan. OTM bitiruvchisi ham kasbiy, ham umummadaniy kompetentsiyalarni egallashi zarur. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti malaka talablarida kompetentsiyalarni baholashga yondashuvlar talabalarning o'qitish natijasini egallaganlik darajasini belgilaydi va oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonida kompetentli yondashuvni takomillashtiradi².

Mamlakatimizda pedagogika yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyati samradorligini oshirishda ijodiy va strategik fikrlash qobiliyatlarini o'zida jamlagan turli sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni integratsiya qilish imkonini beradigan metakompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni olib kirish va ko'nikma va malakalarining turli kasbiy jamoalarda ishlab chiqarish faoliyatida uyg'unlashuvi" sifatida belgilangan³. Hozirgi sharoitda rivojlangan davlatlarning pedagogika ta'limiga doir tajribalarini keng tadbiq etish asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois, pedagogika yo'nalishi talabalarining metakompetentligini rivojlantirish asosida pedagogik faoliyatning samaradorligini o'rganish va uni amaliyotga samarali joriy etish, pedagogik tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida pedagogik ta'limini samarali loyihalashtirish, bunda yangicha yondashuvlarni pedagogika yo'nalishi talabalarining metakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirish, shu asosda raqobatbardosh va zamon talabalariga javob beradigan, pedagogik faoliyat ishini to'g'ri va samarali amalga oshira oldagigan xodimlarni tayyorashga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga pedagogika yo'nalishi talabalarining metakompetentligini rivojlantirishda rivojlangan davlatlarning pedagogik ta'limiga doir tajribalarini o'rganish va ta'limga olib kirish, pedagogika yo'nalishi talabalarining metakompetentligini rivojlantirish asosida kasbiy mahoratini pedagogik munosabatlarda erkin namoyon qilishga erishish masalalariga yondashish orqali ilmiy-fundamental loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida

¹2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>

²Sa'dullaeva Mahfuza Husenovna. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida./ Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил №10). -b.191.

³Общая и профессиональная педагогика / Под ред. В.Д. Симоненко. - М., 2005. С.24.

bo'lajak pedagoglarning pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil etishga, metaimkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishlariga erishishning metodologik asoslari muntazam takomillashtirish maqsad qilingan va individual shaxsiy xususiyatlarni jamlagan shaxsiy sifatleri modelining ustuvor komponentini hosil qiladi⁴.

Pedagogika sohasiga oid adabiyotlarda "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida keng tarqalgan va ta'limga kompetentli yondashuv shakllanishiga asos solingan.

Metakompetentsiya-bu mukammallashish, ijodiy va strategik fikrlash qobiliyatlarini o'zida jamlagan, turli sohalardagi bilim va ko'nikmalarni integratsiya qilish imkonini beradigan qobiliyat. Ushbu konsepsiya insonning o'z bilimlarini, ko'nikmalarini va tajribalarini samarali ravishda birlashtirib, yangi vaziyatlarga moslashish, muammolarni hal etish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini qamrab oladi. Demak, metakompetentsiya insonning professional rivojlanishi uchun muhimdir, chunki u faqat bir sohada emas, balki turli sohalarda ham samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Tadqiqotchi olim I.Yu.Azizova pedagogik ta'limni insonparvarlashtirish va texnologiyalashtirish asosida biolog-talabalarni metodik tayyorgarligi natijalarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari bevosita muammoli topshiriqlar vositasida rivojlantirilishiga urg'u beradi⁵.

Ta'lim oluvchi bakalavriat dasturini qanchalik sifatli o'zlashtirganini baholash tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'zlashtirishni joriy nazoratdan o'tkazish, ta'lim oluvchilarni oraliq nazoratdan o'tkazish va yakuniy nazorat;

- oraliq nazorat-talabani fan yoki mavzuli modul bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash;

- taqvim modulning oxirida yoki muayyan fanni o'rganish tugaganda imtihon yoki sinov shaklida o'tkaziladi;

- joriy nazorat-fanni o'rganish jarayonida o'quv faoliyatining har xil turlari bo'yicha talabani o'quv yutuqlarini baholash.

- yakuniy nazorat - talabani butun o'qish davridagi o'quv yutuqlarini kompleks tekshirish; kompleks imtihon yoki BMI (bitiruv malakaviy ish), kurs ishi, yakuniy davlat attestatsiyasi himoyasi ko'rinishida o'tkaziladi.

Mashhur Benjamin Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlarini egallashning kognitiv bosqichi quyidagi darajalarini belgilaydi:

- bilim-o'rganilgan material eslab qolish va qayta ishlash qobiliyati;

- tushunish-materialni interpretatsiya qilish, materialni bir shaklda ifodalashdan boshqa shaklga o'tkazish;

- qo'llash-o'rganilgan materialni aniq sharoitlar va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasi;

- tahlil-o'rganilgan materialni tarkibiy qismlarga ajratish;

- sintez – elementlarni kombinatsiyalash ko'nikmasi;

- baholash – u yoki bu o'quv materialini ahamiyatini baholash ko'nikmasini ifodalaydi⁶.

⁴Sa'dullaeva Mahfuza Husenovna. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida./ Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил №10). -b.195.

⁵Азизова И.Ю. Критерии и показатели результатов оценивания методической подготовки студентов-биологов на основе гуманитаризации и технологизации педагогического образования.// Известия БГПУ. С.67-71.

⁶Сибикина И.В. Модели и алгоритмы формирования и оценки компетенций выпускника вуза: автореф. дис. ... канд. техн. наук. –Астрахань: АГТУ, 2012. – 16 с.

Pedagogning metakompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish metodikasi, o'qituvchilik kasbiga tayyorlanayotgan talabalar uchun zarur bo'lgan kompleks bilimlar, ko'nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilgan pedagogik jarayonni o'zida ifodalaydi. Endilikda "oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, o'zini o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qo'yilgan. Pedagogning shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi"⁷.

Doimiy professional o'sish va ta'limni rivojlantirish pedagoglarning muntazam ravishda yangi bilimlar olishlari, ilmiy tadqiqotlar olib borishlari va malaka oshirishlari muhim hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchiga yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni o'rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>.
2. Sa'dullaeva Mahfuza Husenovna. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. / Taъlim va innovatsion tadqiqotlar (2022 йил №10).
3. Общая и профессиональная педагогика / Под ред. В.Д. Симоненко. - М., 2005.
4. Азизова И.Ю. Критерии и показатели результатов оценивания методической подготовки студентов-биологов на основе гуманитаризации и технологизации педагогического образования. // Известия БГПУ.
5. Сибикина И.В. Модели и алгоритмы формирования и оценки компетенций выпускника вуза: автореф. дис. канд. техн. наук. –Астрахань: АГТУ, 2012.
6. To'raxonova Barno Tursinboyevna. Bo'lajak pedagogni pedagogik –psixologik jihatdan tarbiyalashda faoliyat mexanizmlari. / Образование и инновационные исследования (2023 год № 11).

⁷To'raxonova Barno Tursinboyevna. Bo'lajak pedagogni pedagogik –psixologik jihatdan tarbiyalashda faoliyat mexanizmlari. / Образование и инновационные исследования (2023 год № 11).-b.273-276.